

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-2/1

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Qurbonova O.H., Isayev S.X. Kunjutni ekish muddati va ekish meyorlarini tuproqning donadorligiga ta'siri	105
Zakirova S.X., Akbarov R.F. Adirlik sharoitida anorni sug'orish meyorlarini aniqlashning o'ziga xosligi	108
Абдулхақов Ф. Томчилатиб суғориш усулини ғўза ҳосилдорлигига таъсири	111
Амантурдиев Г.Б., Амантурдиева Н.Г., Амантурдиева Д.Г. Влияние пробиотической кормовой добавки на молочную продуктивность коров голштинской породы	114
Амантурдиев Г.Б., Амантурдиева Н.Г., Амантурдиева Д.Г. Эффективности использования экструдированных комбикормов-концентратов на дойных коровах	117
Аминова Д.Х. Ғўзада зарарли организмларни ривожланиши ва тарқалишининг мониторинг қилиш усуллари	120
Болтаева Л.Э., Амантурдиев А.Б., Мирахмедов М.С., Норов Б.Н. F ₃ дурагай оилаларининг тола сифат кўрсаткичлари	124
Ёдгоров Н.Ғ., Халиков Б.М. Маъдан ўғитлар меъёри ва суғориш тартибларининг кузги бугдой ўсимлик бўйи, умумий ва маҳсулдор поялар сонига таъсири	127
Зокиров К., Собиров О.Т., Зокиров О.К., Исақов И.Б., Саиджахонова Д.А. Распространение и биологические особенности сливовой ложнощитовки – <i>Sphaerolecanium prunastri</i> (Fonsc.) в условиях Ферганской долины	130
Имамов Ф.З., Ортиқов Т.Қ. Минерал ва органик ўғитлар ҳамда фосфогипсни ингичка толали сурхон-14 ғўза навининг ҳосилдорлигига таъсири	133
Исашов С.А. Ғўзанинг Андижон-35 ва Андижон-36 навларини парваришlashда тупроқ остидан суғориш усулини қўллаш	136
Исашов С.А. Тупроқ остидан суғориш усулини ғўза ҳосилдорлигига таъсири	140
Қодирова Г.Б., Мирахмедов С.М. Беккросс дурагай оилаларининг қимматли хўжалик белгилари бўйича кўрсаткичлари	143
Қорабоев И.Т., Шавкатова З.Ш. Турли қатор кенгликларида ғўзанинг Бухоро-102 навини парваришlashни тупроқни агрофизикавий хусусиятлари ва пахта ҳосилига таъсири	146
Турдикулов Т. Фермер хўжаликлари ва аҳоли молларининг сут ва ғўшт маҳсулдорлигини кўпайтириш йўллари	151
Тўхтаев Ш.Х., Ганиева Ф.А., Мухаммадова Г.Н. Ғўзадаги ўргимчакканага қарши курашишда Узмайт препаратининг самарадорлиги	154
Хасанова Ф.М., Райимбердиев Х.А., Эшонқулов М.А. Ғўза парваришида бегона ўтларга қарши кимёвий курашнинг ҳосилдорликка таъсири	156
ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ	
Sharipov R.A., Raximova S.A. α – гармоник функсиялар uchun Blanchet teoremasi	160
Абдуллаева Б.К., Аमतov Ш.Я., Шерметова А.С., Ахунов Ш.Дж., Кахрамонова П.Г., Усманов Д.Т. Исследования вторичных частиц при бомбардировке монокристалла GaAs многозарядными ионами Bi^{q+}	163
КИМЁ ФАНЛАРИ	
Эшчанов Р.А. Теория трансформации в ядерных протонах и атомных орбиталей	171

G'ozani gullash davri boshidan – gulga kirishda, gullash va pishish davrida esa ko'saklarni ochilish dinamikasi uslubiy ko'rsatmalar asosida aniqlangan. G'ozani o'suv davri boshida va oxirida hamma variantlarda hisob-kitob maydonlarida haqiqiy ko'chat qalinligi hisoblangan. Bir ko'sak paxtasining vaznini o'zgarishi va paxta hosili hamma qaytariqlarda va variantlarda terimlar bo'yicha hisoblangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бекназаров Б.Д., Валихонов М.Н. Особенности активации прифосфатазы хлопчатника ионами магния. Физиология растений. 2006. том 53. №1. 54-54с.
2. Бекназаров Б.О., Валихонов М.Н. Свойства неорганической пирофосфатазы хлопчатника II М. Прикладная биохимия и микробиология, 2007. том 43, № 2. 172-177 с.
3. Niyozaliev B.I., Azimova M. Suspenziya me'yorlarining g'ozadagi samaradorligi. "Agrar sohada fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent-2011, B. 68-69.
4. G'ofurov D.U., Aralova D.B., Tillabekov B.A. Vliyanie norm mineralnykh udobreniy na nakapleniyu uroжайnosti zerna suxoy biomassy dlya ozimoy pshenitsy (*Triticum aestivum*) v usloviyax tipichnykh serozemov Tashkentskoy oblasti // «Aktualnye problemy sovremennoy nauki» jurnal. –Moskva 2018. №6 (103) S. 150-155.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. //5-ое изд. поп.и перераб. Москва. Агропромиздат, 1985, 248-256 с.
6. Қ.А.Давронов. Ғўзани баргидан озиклантиришда азот-калцийли суюқ ўғитни қўллашнинг ҳосил элементлари тўқилишига таъсири. //Ecologiya xabarnomasi №10/ 2018й. октябрь.25- 27 б.
7. Ермаков А.И., Сичкаръ Н.М., Айзина М.И. Применение минеральных веществ для внекорневого питания некоторых зерновых, масличных и овощных культур. Внекорневая подкормка с.-х. растений. // Сельхозгиз, 1955. 17 с.
8. Dantas A.C., Querez J., Vieira E., Almeida V.. Effect of gibberellic acid and the biostimulant stimuler on the initial growth of tamarint// Revista Brasileira de Fruticultura.2012. Mar. vol.34. P 1.
9. Азимова М. Урожай хлопка-сырца и качество волокна хлопчатника в зависимости норм КАС и карбомида при внекорневой подкормке. // Актуальные проблемы современной науки, Москва, 2018, №6(103), с.124-127. (06.00.00.№5).
10. Azimova M.KAS va karbamid o'g'itlari asosida tayyorlangan suspenziyalarning g'ozani o'sish va rivojlanishiga ta'siri.. "O'zbekiston Agrar fani xabarnomasi" jurnali.Toshkent. 2018. № 2 (72).B.7-10

UO'K:633.51+631.459.2

KUNJUTNI EKISH MUDDATI VA EKISH MEYORLARINI TUPROQNING DONADORLIGIGA TA'SIRI

O.H.Qurbonova, o'qituvchi, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Qarshi
S.X.Isayev, q/x.f.d., prof., "TIQXMMI" MTU, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining qadimdan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kунjutdan yuqori va sifatli don hosili olish uchun kунjutni 15 mayda gektariga 2,0 mln dona urug' ekib parvarishlashda tuproq donadorligi 2,1-2,2 % gacha kamaygani va don hosildorligiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qadimdan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari, tuproq xajm massasi, tuproq donadorligi, sug'orish meyori, mavsumiy sug'orish, kунjutni o'sishi va rivojlanishi va don hosildorligiga ta'siri.

Аннотация. В данной статье с целью получения высокого и качественного урожая зерна кунжута в условиях длительно орошаемых светло-серых почв Кашкадарьинской области 15 мая было высеяно 2,0 млн семян на 1 га и определена влажность почвы перед поливом. порядка 65-65-60% по сравнению с ЧДНС, сезонная норма орошения 1250 м³ приведены данные о влиянии водяного орошения на урожайность зерна.

Ключевые слова: Исторически орошаемые светло-серые почвы, объемная масса почвы, оросительная норма, сезонное орошение, влияние на рост и развитие кунжута и урожайность зерна.

Abstract. In this article, in order to obtain a high and high-quality grain yield from sesame in the conditions of long-irrigated pale gray soils of Kashkadarya region, on May 15, 2.0 million seeds per hectare were planted and the soil moisture before irrigation was in the order of 65-65-60%

compared to ChDNS, the seasonal irrigation rate is 1250 m³ Data on the effect of water irrigation on grain yield are given.

Keywords: Historically irrigated pale gray soils, soil volume mass, irrigation rate, seasonal irrigation, effects on sesame growth and development and grain yield.

Kirish: Bugungi kunda yer yuzida aholi soni oshishi, sug'orib dehqonchilik qilish maydonlari chegaralanganligi, dunyoning 80 ta mamlakatida suv tanqisligi muammosi mavjudligidan har yili 7 mln. gektar ekin maydonlari qishloq xo'jaligi foydalanuvidan chiqib ketishi natijasida dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi muammosi dolzarb hisoblanadi. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, kiyintirish va sog'lomlashtirish uchun oziq-ovqatga mo'ljallangan ekinlarni hosildorligini 1,5-2 marta oshirish, texnika ekinlarini parvarishlashni tubdan yangi usullarini qo'llash hamda atrof-muhitni toza holda saqlaydigan texnologiyalarni joriy etish bugungi kuniing dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, M.Amanova, L.Allanazarova, B.Rustamov [1, 29 bet.], so'ngi yillarda respublikamizda qandolatchilikni tez sur'atlar bilan rivojlanishi kunjutga bo'lgan talabniyanada oshib borishiga sabab bo'lmoqda, bu o'z yeavbatida kunjut ekinini ham haqli ravishda serdaromad ekinlar qatoriga kiritish imkonini beradi. Mualliflar tomonidan hozirgi mahalliy bozorlarimizda 1 kg sifatli kunjut urug'ini narxi 8-10 mingni tashkil etmoqda, lalmi yerlardan 400-450 kg hosil olinganda, o'rtacha har gektar maydondan 1,8-2,4 mln.so'm sof daromad olish imkoniyati yaratilishi aytilgan.

M.Amanova, L.Allanazarova [2, 28 bet.], Respublikamiz iqlim sharoitida fuzaroz kasalligiga chidamli navlarni yaratishda asosan sss.bicarpellatum Hill kenjaturning pr.asiation Hilt va ssp.quadricarpellatum Hilt. kenja turining pr.palest. Hilt tur xillariga mansub nav va namunalardan birlamchi manba sifatida foydalanish tavsiya etilgan.

M.Amanova, A.Rustamov, S.Karimova [3, 57 bet.], o'simliklar genoffondi Respublikamizning milliy boyligi bo'lib, kelajan ovlodni oziq-ovqat xavfsizligi kafolatlovchi asosiy manba hisoblanadi, shuning uchun uni saqlash, boyitish va kelajan ovlodga butunligicha qoldirish nafaqat soha mutaxassislari balki barchamizni burchimizdi, shu sabali qishloq xo'jaligi ekinlarining mahalliy, yo'qolib borayotgan noyob, yovvoyi ajdodlarining namunalaridan kelgusida serhosil, ekologik stress omillarga, kasallik va xashoratga chidamli bo'lgan yangi navlarni yaratishda birlamchi manba sifatida foydalanish tavsiya etilgan.

U.YE.Aytjanov, B.U.Aytjanov [4, 22 bet.], Qoraqalpog'iston tuproq iqlim sharoitiga moslashtirilgan yangi istiqbolli Qarshig'a navi urug'larini yetishtiradigan xo'jaliklarini tashkil etish; hudud tuproq va iqlim sharoitlarida yaratilgan navlarini tanlab ekish; zamonaviy yangi yaratilgan navlarning sifatli urug'larini ko'paytirishda tuproqlarning meliorativ holatiga katta e'tibor qaratish, yer osti suvlari past joylashgan maydonlarga ekish; moyli ekinlar mahsulotlarini saqlashning zamonaviy uslublaridan foydalanish; eng zamonaviy texnologiyalarni qo'llash tufayli moyli ekinlar mahsulotlarini qayta ishlash va toza holda eksport qilishga e'tibor qaratish zarurligi aytib o'tilganligi asoslangan ilmiy natijalarga erishilgan. Lekin, janubiy mintaqaning och tusli bo'z tuproqlari sharoitida moyli ekinlar yetishtirish va qayta ishlash yo'nalishida erishilayotgan yutuqlar, yoritilayotgan muammolar va ularning yechimlari soha mutaxassislarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tajriba o'tkazish uslublari: Dala tajribalari Paxta seleksiyasi, urug'chiligini yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot institutida qabul qilingan "Metodi agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnix xlopkovix rayonax" (PSUYEAITI, 1963 y.), "Metodika polevix opitov s xlopchatnikom" (PSUYEAITI, 1981 y. va Dala tajribalarini o'tkazish, (Toshkent, 2007 y.) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati toboro oshib borayotgan suv tanqisligining salbiy oqibatlarini kamaytirish, daryo suvlarini iqtisod qilishga yangidan ilmiy yondashib, Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kunjutning "Tashkentskaya-122" navini ekish meyor, muddatlarini sug'orish tartibini ishlab chiqish hamda tuproqning suv-fizik xossalariga, kunjutning o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta'sirini aniqlashdir.

Tadqiqotning maqsadi janubiy mintaqaning och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kunjutni ekish meyori, ekish muddatlarining o'sishi va rivojlanishi hamda urug' hosili yetishtirish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot natijalari: Tajriba Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanidagi "Hamza" fermerlar uyushmasi xududidagi "Jasurbek Po'latovich" fermer xo'jaligida sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kunjutning "Tashkentskiy-122" navini parvarishlashda eskidan sug'orilib, dehqonchilik qilib kelinayotgan mintaqalardagi qo'llanilayotgan agrotexnik jarayonlar asosida amalga oshirildi.

Olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra (2018 yil) tuproqning agronomik jihatdan qulay fraksiyalar miqdorini (<10->0,25mm) kunjutning amal davri boshida o'rganilganda 15 may sanasida urug'lar ekilgan maydonda tuproqning haydov (0-30 sm) qatlamida 71,6 % ni, 0-50 sm qatlamida 69,6 % ni, 0-100 sm qatlamida esa 66,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 15 iyun sanasida ekilgan maydonda esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda qatlamlar bo'ylab 71,1; 69,0; 65,4 foizni tashkil etgan.

Kunjutning amal davri oxiriga kelib, 15 mayda urug'lar 1,5 mln. dona/ga miqdorda ekilgan 1-variantda tuproqning agronomik jihatdan qulay fraksiyalar miqdori tuproqning haydov (0-30 sm) qatlamida 70,0% ni, 0-50 sm qatlamda 68,4% ni, 0-100 sm qatlamda esa 64,4% ni tashkil etib, bu esa amal davri boshiga nisbatan qatlamlarga mos ravishda 1,2-1,6% gacha kamaygani, 15 iyun sanasida urug'lar ekilganda esa bu ko'rsatkichlar qatlamlarga mos ravishda 69,6; 68,0; 63,3% ni tashkil etib, amal davri boshiga nisbatan qatlamlarga mos holda 1,0-2,1% gacha kamayib borgani kuzatildi.

Kunjut urug'ini 15 may sanasida ekish meyori gektariga 2,0 mln dona miqdorda parvarishlangan 2-variantda tuproqning agronomik jihatdan qulay fraksiyalar miqdori xaydov (0-30 sm) qatlamda 71,1% ni, 0-50 sm qatlamda 69,0% ni, 0-100 sm qatlamda esa 65,4% ni tashkil etib, amal davri boshiga nisbatan qatlamlarga mos ravishda 0,5-0,6% gacha kamaygani kuzatildi.

Kunjut urug'ini 15 iyun sanada gektariga 2,0 mln dona miqdorda ekib parvarishlangan 2-variantda tuproqning agronomik jihatdan qulay fraksiyalar miqdori xaydov (0-30 sm) qatlamda 70,5% ni, 0-50 sm qatlamda 68,0% ni, 0-100 sm qatlamda esa 63,9% ni tashkil etib, amal davri boshiga nisbatan tuproqning donadorligi qatlamlarga mos ravishda 0,6-1,5% gacha kamaygani kuzatildi.

O'simlikning amal davri oxiriga kelib, 15 mayda kunjut urug'lar 2,5 mln. dona/ga miqdorda ekib, parvarishlangan 3-variantda tuproqning agronomik jihatdan qulay fraksiyalar miqdori haydov (0-30 sm) qatlamida 70,5% ni, 0-50 sm qatlamda 69,0% ni, 0-100 sm qatlamda esa 64,9% ni tashkil etib, amal davri boshiga nisbatan qatlamlarga mos ravishda 0,6-1,1% gacha kamaygani, 15 iyun sanasida urug'lar ekilganda esa bu ko'rsatkichlar qatlamlarga mos ravishda 70,0; 68,0; 63,3% ni, bu esa amal davri boshiga nisbatan qatlamlarga mos holda 1,0-1,8% gacha kamaygani aniqlandi.

Kunjut urug'ini 15 may sanada, ekish meyori gektariga 3,0 mln dona qilib belgilangan 4-variantda tuproqning agronomik jihatdan qulay fraksiyalar miqdori xaydov (0-30 sm) qatlamda 69,6% ni, 0-50 sm qatlamda 67,5% ni, 0-100 sm qatlamda esa 63,9% ni tashkil etib, amal davri boshiga nisbatan qatlamlarga mos ravishda 2,0-2,1% gacha, 15 iyun sanasida ekilganda esa xaydov (0-30 sm) qatlamda 69,0% ni, 0-50 sm qatlamda 66,4% ni, 0-100 sm qatlamda esa 62,4% ni tashkil etib, amal davri boshiga nisbatan tuproqning donadorligi qatlamlarga mos ravishda 2,1-2,2 % gacha kamaygani kuzatildi, (1-jadval).

1-jadval

Kunjut yetishtirishda tuproqning donadorligiga ta'siri, % hisobida

Tuproq qatlami, sm	Amal davri boshida			Amal davri oxirida variantlar bo'yicha											
				1 variant			2 variant			3 variant			4 variant		
	>10	10-0,25	<0,25	>10	10-0,25	<0,25	>10	10-0,25	<0,25	>10	10-0,25	<0,25	>10	10-0,25	<0,25
Kunjutni 15 mayda ekilgan dala															
0-30	22,8	71,6	5,6	24,9	70,0	5,1	23,6	71,1	5,3	24,3	70,5	5,2	25,3	69,6	5,1
0-50	24,5	69,6	5,9	26,4	68,4	5,2	25,6	69,0	5,4	25,6	69,0	5,4	26,9	67,5	5,6
0-100	27,2	66,0	6,8	29,5	64,4	6,1	28,1	65,4	6,5	28,7	64,9	6,4	29,3	63,9	6,8
Kunjutni 15 iyunda ekilgan dala															
0-30	23,3	71,1	5,6	25,2	69,6	5,2	24,1	70,5	5,4	24,6	70,0	5,4	25,6	69,0	5,4
0-50	25,2	69,0	5,8	26,6	68,0	5,4	26,4	68,0	5,6	26,4	68,0	5,6	27,4	66,8	5,8
0-100	27,4	65,4	7,2	30,4	63,3	6,3	29,5	63,9	6,6	29,9	63,3	6,8	30,0	63,1	6,9

Kunjutni 15 mayda gektariga 2,0 mln dona (6 kg/ga) 2-variantda gektariga o'rtacha uch yilda 12,3 s/ga, gektariga 1,5 mln dona (5 kg/ga) 1-variantda 10,4 s/ga urug' hosili yig'ishtirib olindi yoki 1-variantga nisbatan 1,7 s/ga qo'shimcha urug' hosili olishga erilgan bo'lsa, kunjutni 15 iyunda gektariga 2,0 mln dona (6 kg/ga) 2-variantda o'rtacha uch yilda 6,6 s/ga, gektariga 1,5 mln dona (5 kg/ga) 1-variantda 5,5 s/ga urug' hosili yig'ishtirib olindi yoki 1-variantga nisbatan 1,1 s/ga qo'shimcha urug' hosili olishga erishildi.

Xulosa: Qashqadaryo viloyatining qadimdan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kunjutdan yuqori va sifatli don hosili olish uchun kunjutni 15 mayda gektariga 2,0 mln dona urug' ekib parvarishlashda tuproq donodorligi 2,1-2,2 % gacha kamaygani aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. M.Amanova, L.Allanazarova, B.Rustamov-Lalmi yerlarda kunjutdan sifatli hosil yetishtirish--//Agro ilmi jurnali 3(34)-son, 2014 yil, 29 bet.
2. M.Amanova, L.Allanazarova-O'simliklar jahon kolleksiyasidan kunjut seleksiyasi uchun yangi noyob manbalar--//Agro ilmi jurnali 3(47)-son, 2017 yil, 28 bet.
3. M.Amanova, A.Rustamov, S.Karimova-O'simliklar genofondining seleksion ahamiyati--//Agro ilmi jurnali 6(50)-son, 2017 yil, 57 bet.
4. U.YE.Aytjanov, B.U.Aytjanov-Qoraqalpog'istonda kunjutning yangi Qarshig'a navini urug'chiligini ko'paytirish? -//2018 yil, 21 apreldagi "Moyli ekinlari yetishtirish va qayta ishalash: hozirgi xolati va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari to'lami, 2018 yil, 22 bet.

UO'K:634.6/635.7

ADIRLIK SHAROITIDA ANORNI SUG'ORISH MEYORLARINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

S.X.Zakirova, q/x.f.d., prof., Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

R.F.Akbarov, assistent, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Farg'ona viloyatida anorchilikni yorqin istiqboliga ishonib viloyatning Quva, Quvasoy, Toshloq, Farg'ona, Oltiariq tumanlarida anorni sug'orish meyoriga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Anor, tuproq, unumdorlik, dehqonchilik, sug'orish, maydon, urug', meva, hosildorlik.*

Аннотация. *Веря и блестящие в перспективы выращивания гранаты в Ферганской области, особое внимание уделяется нормы полива граната в Кувинском, Куvasойском, Ташлокском, Ферганском, Алтыарыкском районах области.*

Ключевые слова: *Гранат, почва, плодородие, земледелие, орошение, орошаемое нормы, семена, плоды, урожайность.*

Abstract. *Believing in the bright prospects of pomegranate cultivation in Fergana region, special attention is paid to the norm of pomegranate irrigation in Kuva, Kuvasoi, Tashlok, Fergana, Altiariq districts of the region.*

Key words: *Pomegranate, soil, fertility, farming, irrigation, area, seed, fruit, hectare.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo dehqonchiligi amaliyotida tuproq unumdorligini oshirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda anor o'ziga yarasha xususiyatga ega bo'lib, hatto uning urug'i va po'stidan tibbiyotda foydalaniladi, o'zi esa insonlarga eng yaxshi oziqali meva sifatida foydalaniladi. FAOning ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha anor ekini 300000 gektardan ortiq maydonda yetishtirib, mazkur maydonlarda 3000000 tonnadan ortiq anor mahsulotlari yetishtiriladi. Bu borada asosiy ishlab chiqaruvchi mamlaktlar hisoblanmish Hindiston, Eron, Turkiya, Xitoy va AQSH hisoblanib ularda dunyo bo'yicha yetishtirilayotgan anor mahsulotlarining 76 % dan ortig'ini ishlab chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2018-2020 yillar davomida meliorativ holati yomon yerlarda ekib kelinayotgan paxta va boshqoli don ekinlari maydonlarini bosqichma-bosqich qisqartirib, ularning o'rniga iqtisodiy yuqori samara beruvchi ekinlarni joylashtirish, fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu